



Toma, Jaloyir Etnotoponimlari

Dilhayot Sotiboldiyev

Qo'qon DPI o'zbek tili va adabiyoti
fakulteti 2- bosqich talabasi
dilhayotsotiboldiyev5@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada nafaqat Toma, Jaloyir etnotoponimlari xususida, balki etnotoponimlarning topominlashuvi bo'yicha qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Etnotoponimlar, toponimlar, qabila, urug', qavm, xalqlar.

Toponimlarning vujudga kelishida aholining etnik tarkibi - ma'lum hududda istiqomat qilgan turli xalq, qabila, urug'lar muhim rol o'ynagan. Jug'rofiy joylarning ko'pchiligi kishilarning ijtimoiy guruhi - qaysi qabila va urug', qavmga mansubligiga nisbatan nom ola boshlagan. Etnonimlardan yasalgan toponimlar-etnotoponimlar, odatda, turli qabila, urug' vakillari qo'shni, aralash yashagan hududlarda, etnonimlar farq etuvchi belgi vazifasini bajaradigan joylarda yuzaga kelgan. Bunday nomlar o'sha qabila, urug' vakillarining o'zlari tomonidan berilmagan, balki qo'shni, ikkinchi qabila kishilari tomonidan qo'yilgan.

Qo'qon shahar tarixiy mikrotoponimiysi tizimida aholining milliy tarkibini aks ettiruvchi urug', qabila, qavm, xalq toifa nomlari bilan atalgan etnotoponimlar alohida o'rinn egallaydi. O'tmishta shaharda turli etnik guruhlarga mansub kishilarning hayot kechirganligi shunday toponimlarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Ko'plab mahalla, guzar, ko'chalar etnonimlar bilan atalib kelgan. Qipchoqariq, Qo'tirqipchoq, Qirqlar, Yuzlar, Qatag'on, Toma, Urganji, G'oziyog'liq, Tog'liq, G'alchasoy, Naymancha, Beshqovoq, Qorako'rpa, Qashqaryon, Uchuylı, Begvachcha, Avg'onbog', Lo'liyon, Juhutmahalla kabilalar shular jumlasidandir. Bulardan Qipchoqariq va Qo'tirqipchoq toponimlari o'zbek xalqining eng katta nufuzli qabilalaridan biri bo'lmish qipchoq etnonimi asosida nom olgan. XIX asr oxirida Farg'ona vodiysidagi qipchoqlar 70 mingga yaqin kishini tashkil etgan, tabiiyki, qipchoqlarning ma'lum bir guruhi Qo'qon shahrida ham yashagan.



Shaharda 2ta mahalla qirqlar deb yuritiladi, ularning shu tarzda atalishiga 92 bovli o'zbek urug' va qabilalari tarkibiga kirgan qirq etnonimi asos bo'lib xizmat qilgan.

Toma qadimiy urug'lardan biri. M. Solihning "Shayboniynoma" asarida bu etnonim qayd etib o'tilgan. Tomalar Qo'qon shahri va uning atroflarida o'rashib qolganlar.

Jaloyir — bir necha turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek, qozoq, qoraqalpoq xalqlarining tarkibiga kirgan yirik qabilalardan birining nomidir. Manbalarda ko'rsatilishicha, o'zbeklar tarkibiga kirgan jaloyirlar o'tmishda Toshkent va Buxoro vohalarida, Nurota tog' etaklarida, Jizzax, Kattaqo'rg'on tomonlarda, Qashqadaryo, Surxondaryo va Farg'ona vodiysida yashaganlar. 1920 va 1926 yillardagi aholi ro'yxatida O'zbekistonda yashovchi jaloyirlarning soni 25 ming kishiga yaqin ekanligi aniqlangan. Qo'qon shahri toponimlari tarkibida jaloyir etnonimi bilan bog'liq mahalla va qishloq nomlari uchraydi.

O'rganilayotgan hududda Urganji va Urganjibog' mahallalarining nomi urganji etnonimi zamirida yuzaga kelgan. Etnonim Urganch shahri nomiga tojikcha -i qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan, ma'nosи "urganchlik" demakdir.¹ Urganji etnonimi faqat shahar hududida emas, atrof tumanlar (Dang'ara, Uchko'rik, Buvayda) da ham uchraydi.

Bulardan tashqari, shahar tarixiy mikrotoponimiyasida turli toifa, tabaqa, guruh nomlari bilan ifodalangan Boyon, Maddohon, Shayxon, Bekvachcha, Xo'jamahalla, Darvishobod, Eshonmahalla toponimlarini ham etnotoponimlar sirasiga kiritish mumkin.

Xullas, Qo'qon shahri tarixiy mikrotoponimiyasi tizimida etnotoponimlar ma'lum bir qatlampi tashkil etadi. Ular ma'lum hududda yashab kelgan turli qabilalar, urug'lar, qavmlar, xalqlarga oid ko'plab ma'lumotlar beradi. Bu xil etnotoponimlar o'zbek xalqining shakllanish tarixini, etnogenetizi masalasini yoritishda qo'shimcha manba bo'lib xizmat qiladi.

Etnonimlarning biron bir qo'shimcha element qabul qilmasdan to'g'ridan – to'g'ri joy nomiga ko'chishi (toponimlashuvi) o'rganilayotgan xududda ancha sermaxsuldir. Darhaqiqat, Etnonimlarning toponimlashuvini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

- 1) tub Etnonimlarning toponimlashuvi: qatog'on-Qatog'on, toma-Toma, yuz-

¹ Н. Охунов. Жой номлари таъбири. Тошкент, 1994. 54-бет.



Yuzlar, Qirq-Qirqlar, g'alcha-G'alcha kabilar.

2) yasama Etnonimlarning toponimlashuvi: ovchi-Ovchi, toglik-Toglik,, nayman-Naymancha singarilar.

3) qo'shma etnonimlarning toponimlashuvi: beshkrvok-Beshkrvok,, kalrajab-Kalrajab, qo'tirqipchoq-Qo'tirqipchoq,, yalang'och ota-Yalang'och ota, g'oziyog'lik-G'oziyog'lik, va boshqalar.

Foydalilanigan Adabiyotlar:

1. Н. Охунов. Жой номлари таъбири. Тошкент, 1994.